

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

“MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA PROGNOZLASH” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 330.101:541:331.101

NE'MATOVA GULCHEHRAXON FURQATJON QIZI

INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR
RIVOJLANISHNI TA'MINLASH YO'LLARI

70310103 – “Makroiqtisodiyot” mutaxassisligi bo'yicha
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi:

i.f.d., professor, Berkinov B.B.

Toshkent 2024

Dissertatsiya "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash" kafedrasida 2024 yil ____ - sonli
" ____ " bayonnomasida dastlabki himoyadan o'tkazilgan.


Kafedra mudiri: Asqarova M.T.



21.05.2024

sana

Ilmiy rahbar: Berkinov B.B.



Imzo

sana

Magistr: Ne'matova G.F.



16.05.2024

Imzo

sana

Dissertatsiya "Iqtisodiyot" fakultetining 2024-yil "21" 05

No 3/05 sonli bayonnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Fakultet dekani



v.b. X.Sh.Rahimov

ANNOTASIYA

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish ham inson kapitaliga, ham moddiy boyliklarga, shuningdek samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarga bog'liq. Ushbu sohalarga kiritilgan sarmoyalar bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi. Insonning unumdorligi infratuzilma, uskunalar va barqaror, yaxshi boshqariladigan iqtisodiyot kabi moddiy boyliklarning mavjudligiga bog'liq. O'z navbatida, jismonan sog'lom va bilimli odamlar ko'proq pul ishlashlari va iqtisodiyotning moddiy boyliklariga ko'proq sarmoya kiritishlari mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Inson kapitalini uning tarkibida umumlashtirish darajasiga qarab quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: individual, jamoaviy va jamoat. Birinchi ikkitasi mikro darajada ko'rib chiqiladi, ya'ni alohida shaxs va ma'lum bir xususiyatga ko'ra birlashgan odamlar guruhining inson kapitali: kompaniya jamoasi, ijtimoiy-madaniy guruh a'zolari va boshqalar. Ijtimoiy komponent makro darajada inson kapitali bo'lib, u jamiyat tomonidan to'plangan butun inson kapitalini ifodalaydi, u o'z navbatida milliy boylikning bir qismi, strategik resurs va iqtisodiy o'sish omilidir.

Ma'lumki, inson kapitali sifatini oshirish asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Xususan tadqiqotimiz davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhini tayyorladik.

Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimizda inson kapitali sifatini oshirish asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llarini

takomillashtirish chora-tadbirlari bilan tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida inson kapitali sifatini oshirish asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, inson kapitali bozori, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot indeksleri, ta'lim tizimi, qobiliyat, mexanizm, faoliyat, qadr, jamiyat, rivojlanish, ishchi kuchi, mehnat qobiliyati, taraqqiyot, strategiya, iqtisodiy o'sish.

SUMMARY

Economic growth and development depend on both human capital and material resources, as well as factors affecting productivity. Investments in these areas complement and reinforce each other. Human productivity depends on the availability of material assets such as infrastructure, equipment, and a stable, well-managed economy. In turn, physically healthy and educated people can earn more money and invest more in the economy's material assets.

In developed countries, a lot of attention is paid to investing in the full cycle of education, that is, investing in a child's upbringing from 3 to 22 years old. Because this investment brings 15-17 times profit to the society. In our case, this indicator is only 4 times. Therefore, it is necessary to pay more attention to human capital and to mobilize all opportunities for this.

Human capital can be divided into the following components depending on the level of generalization in its composition: individual, collective and public. The first two are considered at the micro level, that is, the human capital of an individual and a group of people united by a certain characteristic: a company team, members of a socio-cultural group, etc. The social component is human capital at the macro level, which represents the total human capital accumulated by society, which in turn is a part of national wealth, a strategic resource and a factor of economic growth.

It is known that issues of improving ways to ensure sustainable development on the basis of improving the quality of human capital are one of the topical issues today. In particular, during our research, we carried out extensive work within the scope of the topic. Among other things, we have prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic.

In order to increase the practical importance of scientific work, we got acquainted with the measures for improving the ways of ensuring sustainable development based on the improvement of the quality of human capital in our country. Based on the studied and analyzed information, we developed scientific

and practical conclusions, proposals and recommendations on ways to ensure sustainable development based on improving the quality of human capital.

Key words: Human capital, human capital market, innovative economy, innovative economy indices, educational system, ability, mechanism, activity, value, society, development, labor force, work ability, development, strategy, economic growth.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	7
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	9
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	10
Keltirilgan qisqartmalar.....	11
I BOB. KIRISH.....	12
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	13
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	15
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	16
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	17
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	17
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	17
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	19
2.1. Kirish.....	19
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	19
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
2.4. Xulosa.....	25
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	26
3.1. Tadqiqot dizayni.....	26
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	26
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	27
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	32
4.1. Inson kapitalining tasnifi va rivojlantirishda umumiy o'rta	

	ta'lim tizimi tahlili	32
4.2.	Inson kapitalini rivojlantirishda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonining iqtisodiy tahlili	47
4.3.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	57
V BOB.	XULOSA.....	59
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	59
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	59
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	61
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

I BOB. KIRISH

Inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilm-fan sohasiga keng qo'llanila boshlandi. Inson kapitali fan va texnika taraqqiy etgan zamonaviy dunyoda eng qimmatga aylangan resurs hisoblanadi. Ammo ushbu tadqiqot yo'nalishi murakkabligi sababli juda ko'p o'rganilmagan masalalarga ega bo'lib, inson kapitalini barcha ko'rinishlari baholash va uni o'lchashning uslubiy qiyinchiliklari mavjud. Shuningdek, hozircha turli uslubiy yondashuvlarga ega yagona me'yoriy-huquqiy baza ham mavjud emas. Zamonaviy dunyoda yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va yanada rivojlantirish, barcha sohalarda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy hayot yangi inson resurslarini talab qiladi.

Intensiv ilmiy-texnik transformatsiyalar sharoitida tezda qaror qabul qilishga qodir bo'lgan o'z ishiga ijodiy yondashadigan va kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zamon talabiga aylandi. Xususan, inson kapitali bozori iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Ko'p yillar davomida bunday raqobatbardosh ustunlik faqat yuksak texnologiyalarga egalik qilishda deb e'tirof etib kelindi. Bunday yondashuv qaysidir ma'noda hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ammo texnologiyalar sohasidagi kashfiyotlar tezlik bilan o'sib bormoqda. Ilg'or taraqqiyot darajasiga erishgan jamiyatlar boshqa raqobatchilardan doimo oldinda bo'lishlari uchun bu texnologiyalarni yaratuvchi yuksak intellektual inson kapitali zarurligini allaqachon anglab yetishdi.

Inson kapitali - bu odamlar hayoti davomida to'plagan bilimlari, ko'nikmalari va sog'lig'i, bu ularga jamiyatning foydali a'zolari sifatida o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Yaxshilangan ovqatlanish, sog'liqni saqlash, sifatli ta'lim, ish o'rinlarini yaratish va malakalarini oshirish orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitalining rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu o'ta qashshoqlikni to'xtatish va ijtimoiy jihatdan birlashgan jamiyatlarni barpo etish uchun juda muhimdir.

Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev